

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI
«AXBOROTLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI**

XIMMATOV IBODILLA QUDRATOVICH

WEB DIZAYN FANIDAN

**LABORATORIYA MASHG'ULOTLARNI
BAJARISH UCHUN**

USLUBIY KO'RSATMA

**2-bosqich bakalavr Informatika o'qitish metodikasi yo'nalishi
talabalari uchun**

SAMARQND-2019

Uslubiy ko'rsatma ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

SamDU, «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrası assistenti Ximmatov I.Q

Taqrizchilar:

SamDU, «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrası dotsenti Qobulov S.S.

SamDU, «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrası dotsenti Djumanov O.

Uslubiy ko'rsatma «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasining «__» avgust 2019 yildagi №_ yig'ilishida muhokama qilindi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlash uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:

prof. I.I.Jumanov

Uslubiy ko'rsatma "Amaliy matematika va informatika" fakulteti o'quv-uslubiy kengashining «__»_____2019 yildagi №__ yig'ilishida muhokama etildi va foydalanishga tavsiya qilindi.

Fakultet kengashi raisi:

dots.A.Babayorov

Fakultet o'quv-uslubiy kengashi raisi:

dots. Sh.Mamatov

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
LABORATORIYA ISHI № 1.....	6
Web dizaynni tashkil etuvchi dasturiy vositalar... ..	6
LABORATORIYA ISHI № 2... ..	13
CSS sintaksisi. CSSni HTML- hujjatda qo'llash.....	13
LABORATORIYA ISHI № 3.....	23
CSS texnologiyalari HTML xujjatga kaskadli stil jadvallarni qo'llash usullari. Stillarni (Selektorlar) e'lon qilish qoidalar.....	23
LABORATORIYA ISHI № 4.....	35
Selektorlarning sinfi, identifikator, psevdosinf va psevdoelement ko'rinishlari. Rang, shrift va ro'yxatlar uchun aniqlangan xossalar.....	35
LABORATORIYA ISHI № 5.....	41
<i>BootStrap dasturi bilan ishlash va boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish</i>	41
LABORATORIYA ISHI № 6.....	53
BootStrapda tugmalar hosil qilish. Tugmalarga obyektlarni bog'lash.....	53
LABORATORIYA ISHI № 7.....	61
BootStrap da menyular hosil qilish.....	61
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	71

KIRISH

Mazkur ishchi o'quv fan dasturi "5110700 – Informatika o'qitish metodikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi 2-bosqichida o'qitiladigan "WEB DIZAYN" o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, bo'lajak mutaxassis egallashi kerak bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi.

Web dizaynfanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr zamonaviy kompyuter tarmoqlarining ishlashida Internet/Intranetning roli, web dizayn fanining rivojolanish yo'nalishlari va muammolari, loyixalashni avtomatlashtirish vositalari va usullari, murakkab web-bo'g'inlarni qurish, jadvallar bilan ishlash, stillar yarata olish, tashqi stillarni tadbiq qilish, sahifaga skriptlarni ulash, kontent boshqaruv tizimlari asosida veb sayt va bloglar ishlab chiqish, veb texnologiyalarda berilganlar bazasini qayta ishlash, statik va dinamik saytlar ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Web sahifa Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularni soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarni turli xillarini: matn, grafik, tasvir, video, audio ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda Web Internet resurslari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. Chunki, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tegishli ma'lumotlarni to'ldirish foydalanuvchining qanchadanqancha vaqtini tejash imkonini beradi. Shu bois matematika va informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga Web dizaynni alohida kurs sifatida o'qitila boshlandi.

LABORATORIYA ISHI № 1

Mavzu: Web dizaynni tashkil etuvchi dasturiy vositalar.

Funksiyalardan foydalanib oynalarni ochish. JavaScript standart funksiyalaridan foydalanib sodda sahifalar yaratish.

(2-soat)

Ishning maqsadi: Talabalarga JavaScript standart funksiyalaridan foydalanib sodda sahifalar yaratishni o'rgatish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Nazariy ma'lumotlar.
2. Topshiriqni bajarish namunalari.
3. Talaba bajaradigan amaliy topshiriq variantlari.

1. Nazariy ma'lumotlar.

Javascript – bu Webni gipermatnli sahifalarini klient tomonida ko'rish tsenariyalarini boshqarish tili. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsa, *Javascript* – bu na faqat klient tomonidagi dasturlash tili. Liveware *Javascript* tilining avlodi bo'lib, Netscape serveri tomonida ishlovchi vosita bo'ladi. Ammo *Javascript* tilini mashhur qilgan narsa bu klient tomonida dasturlashdir. *Javascript*ning asosiy vazifasi – *HTML-konteynerlar* atributlarining qiymatlarini va ko'rsatuvchi muhitining *hossalirini* *HTML-sarlavxalarni* ko'rish jarayonida foydalanuvchi tomonidan o'zgartirish imkoniyatlarida, boshqacha aytganda ularni dinamik sarlavxalar qilish (DHTML). Yana shuni aytish joizki, sarlavxalar qayta yuklanmaydi, amalda buni, masalan, quydagicha ifodalash mumkin, sarlavxaning fonini rangini yoki xujjatdagi rasmni o'zgartirish, yangi oyna ochish yoki o'g'xlantirishoynasini chiqarish.

“*JavaScript*” nomi Netscape kompaniyasining hususiy maxsuloti. Microsoft tomonidan amalga oshirilgan til rasman *Jscript* deb nomlanadi. *Jscript* versiyalari *Javascript*ning mos versiyalari bilan mos keladi (aniqroq qilib aytganda oxirigacha emas). *Javascript* – ECMA (European Computer Manufacturers Association – Evropa Kompyuter Ishlab Chiqaruvchilar Assotsiyatsiyasi) tomonidan

standartlashtirilgan. Mos standartlar quydagicha nomlanadi ECMA-262 va ISO-16262. Ushbu standartlar bilan *Javascript* 1.1ga taqriban ekvivalent ECMAScript tili aniqlanadi. Eslatish joizki, bugungi kunda *Javascript* ning hamma versiyalari ham ECMA standartlariga mos kelavermaydi. Mazkur kurs yoki qo'llanmada barcha hollarda biz *Javascript* nomidan foydalanamiz.

Javascriptning asosiy xususiyatlari. *Javascript* – bu Internet uchun katta bo'lmagan klient va server ilovalarni yaratishga mo'ljallangan nisbatan oddiy ob'ektga yo'naltirilgan til. *Javascript* tilida tuzilgan dasturlar HTML-xujjatning ichiga joylashtirilib ular bilan birga uzatiladi. Kurish dasturlari (*brauzerlar – browser* ingliz suzidan) Netscape Navigator va Microsoft Internet Explorer xujjat matniga joylashtirilgan dasturlarni (*Scriptkod*) uzatishadi va bojarishadi.

Shunday qilib, *Javascript* – interpretatorli dasturlash tili xisoblanadi. *Javascript*da tuzilgan dasturlarga foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarni tekshirayotgan yoki xujjatni ochganda yoki yopganda biror bir amallarni bagaruvchi dasturlar misol bo'lishi mumkin.

Bu dasturlash tilini HTML, CSS kabilarni o'rganib olgandan keyin boshlagan yaxshi. Shunda o'rganish ham oson bo'ladi. Ko'pchilik darhol PHP veb dasturlash tilini o'rganishni boshlab yuborishadi, keyin qiynalib qolishadi, mani fikrimcha dasturlash tilidan dastlab *Javascript*'ni o'rgangan yaxshi va yengil.

- grafika bilan ishlay olmaydi, ya'ni o'zi grafik ob'yektlar hosil qila olmaydi;
- fayllar bilan ishlay olmaydi;
- ma'lumotlar bazasi bilan ishlay olmaydi;
- tarmoq texnologiyalari bilan ishlay olmaydi, va boshqa murakkab ishlarni qilishga qiynaladi yoki qilaolmaydi.


Har xil turdagi veb dasturlash tillari mavjud, misol uchun, PHP, **ASP**, JAVA. Bu dasturlash tillari serverga murojaat qilgan holda ishlaydi. Misol uchun, siz arifmetik qo'shish amalini bajarmoqdasiz, yig'indini olish uchun, siz yozgan kod, veb serverga jo'natiladi, server bu kodni qayta ishlaydi va natijani sizga jo'natadi. Shu tariqa siz natijani olasiz, brauzer ham serverdan javob(natija) kelguncha aylanib yotadi. Bundan ko'rinib turibdiki, saytning(veb sahifaning) ishlash tezligi

server sozlamalariga, servergacha bo‘lgan masofaga, aloqa kabellariga va boshqa narsalarga bog‘liq bo‘lib qoladi. JavaScript’da yozilgan kodlar esa, hech qanday serverga murojaatni amalga oshirmaydi, shu sababli bu dasturlash tili kodlari brauzerni qayta yuklamasdan ishlayveradi.

2. Topshiriqni bajarish namunalari.

1-Misol:JavaScript operatorlaridan foydalanib ilova yarating.

1-qadam:Dreamweaver dasturini ishga tushiring(Пуск→Adobe Dreamweaver)



2-qadam:Uning HTML kodini Dreamweaver dasturiga kiring.

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>2-laboratoriya</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<SCRIPT type="text/javascript">
```

```
var d = new Date();
```

```
var y = d.getDate();
```


```
document.write(y);
```

```
</SCRIPT>
```


</body>

</html>

3-qadam: Hujjatni *1-misol.html* deb saqlang va uni *Firefox* brauzeri yordamida oching.



4-qadam: Sahifada quyidagi natija hosil bo'ladi:



10

3. Talaba bajaradigan laboratoriya topshiriq variantlari.

1-Varint

Berilgan kod yechimida qanday natija berishini tekshiring va natijani ekranga chiqaring.

```
<SCRIPT type="text/javascript">
```

```
var x= 12;
```

```
var y= 5;
```

```
var result-= x +-y;
```

```
alert(result);
```

</SCRIPT>

2-Varint

<HEAD></HEAD> tegi ichida quyidagi funksiyani kiriting va natijani ekranga chiqaring.

<script>

```
function meningFunksiyam() {  
document.getElementById("hidden").innerHTML= "Paragraf o'zgartirildi."  
}
```

</script>

3-Varint

Berilgan kod yechimida qanday natija berishini tekshiring va natijani ekranga chiqaring.

<SCRIPT type="text/javascript">

```
var d = new Date();
```

```
var y = d.getDate();
```

```
document.write(y);
```

</SCRIPT>

4-Variant

SCRIPT atributlaridan foydalanib sahifada *Sinab ko'r!* nomli tugma hosil qiling va uni ekranga chiqaring.

5-Variant

Berilgan kod yechimida qanday natija berishini tekshiring va natijani ekranga chiqaring.

<p id="hidden">Paragraf.</p>

<button type="button" onclick="meningFunksiyam()">1-natija</button>

6-Variant

JavaScriptda "=", "+=", "-=", "*=", "/=", "%=" o'zlashtirish operatorlaridan foydalanib bir nechta ilovalar yaratingva natijani ekranga chiqaring.

7-Variant

JavaScriptdawait va eval(s) operatorining ishlatilishiga misol keltiring va natijani ekranga chiqaring.

8-Variant

Mantiqiy ifodalar dan foydalanib ilova yarating va natijani ekranga chiqaring.

9-Variant

Taqqoslash operatorlari ga misol keltiring va natijani ekranga chiqaring:

```
"==" -"teng";  
">" -"katta";  
"<" -"kichik";  
">=" -"katta yoki teng";  
"<=" -"kichik yoki teng";  
"!=" -"teng emas".
```

10-Variant

switch tanlash operatoridan foydalanib ilova yarating va natijani ekranga chiqaring.

11-Variant

Sahifani biror qismida quyidagi kodni joylashtiring va qanday natija berishini ekranga chiqaring.

```
<a href="javascript:ts('body',1)">+Font ni kattalashtirish</a> |  
<a href="javascript:ts('body',-1)">+Font ni kichiklashtirish</a>
```

12-Variant

<input />elementidan foydalanib ilova yarating va natijani ekranga chiqaring.

13-Variant

Javascriptda **parseInt** va **parseFloat** funksiyasidan foydalaning va natijani ekranga chiqaring.

14-Variant

JavaScript ning asosiy elementlaridan foydalanib soda sahifa tuzing va natijani ekranga chiqaring.

15-Variant

Berilgan kod yechimida qanday natija berishini tekshiring va natijani ekranga chiqaring.

```
<p id="hidden">Paragraf.</p>  
<button type="button" onclick="meningFunksiyam()">tugma</button>
```

16-Variant

JavaScriptda "+=", "-=", "%=" o'zlashtirish operatorlaridan foydalanib ilova yarating va natijani ekranga chiqaring.

17-Variant

switch va *Mantiqiy ifodalar* dan foydalanib ilova yarating va natijani ekranga chiqaring.

18-Variant

Sahifani biror qismida quyidagi kodni joylashtiring va qanday natija berishini ekrangachiqaring.

```
<script>  
function meningFunksiyam() {  
document.getElementById("hidden").innerHTML = "Paragraf o'zgartirildi.";  
}  
</script>
```

19-Variant

JavaScript da nomlash qoidalaridan foydalanib sodda sahifa yarating va natijani ekranda chop eting.

20-Variant

Satrnı vertikal freymlarga bo'lish dasturini tuzing va natijani ekranda chop eting.

21-Variant

Satrnı gorizontaal freymlarga bo'lish dasturini tuzing va natijani ekranda chop eting.

LABORATORIYA ISHI № 2
Mavzu: CSS sintaksisi. CSSni HTML- hujjatda qo'llash.

(2-soat)

Ishning maqsadi: Talabalarga CSS sintaksisi. CSSni HTML- hujjatda qo'llashni o'rgatish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Nazariy ma'lumotlar.
2. Topshiriqni bajarish namunalari.
3. Talaba bajaradigan amaliy topshiriq variantlari.

1. Nazariy ma'lumotlar.

CSS – bu stillar bilan ishlay oladigan kaskadli stillar majmuasidir. Web sahifalarga har xil stillar berish uchun ishlatiladi. HTML xujjat ichida teglar bilan birga foydalaniladi. CSS kodlarini kompilyatsiya qilish uchun qandaydir kompilyatorlar, qandaydir dasturlar, va bu kod tushuna oladigan qandaydir redaktorlar kerak bo'lmaydi. Bu kodlarni HTML singari web brauzerning o'zi kompilyatsiya qiladi va natijani chiqarib beradi.

Ajoyib dizaynni yaratish uchun o'nlab rasmlar, kaskadli stil jadvallari (CSS) va ayrim hollarda javascript (JS) lardan keng foydalanilmoqda.

Adobe Dreamweaver CS4. Veb dasturlash tillari va Kaskadli stillar jadvali (CSS) bilan vizual ishlash uchun juda qulay dasturiy ta'minot.

SS — bu stillar bilan ishlash uchun mo'ljallangan kodlar majmuasidir. Hozirgi kunga kelib yangi CSS3 versiyasi ishlab chiqilmoqda, lekin hali ko'p brauzerlar bu stillarni aks ettira olmayapti. Shuning uchun CSS3 yaratuvchilari brauzer o'rtasida kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida brauzer turiga qarab har xil prefikslar ishlab chiqishdi va bu prefikslardan CSS3 to'liq yaratilmaguncha ishlatish tavsiya etilgan, CSS3 to'liq yaratilgandan so'ng bu prefikslar olib tashlanadi. Bu prefikslar quydagilar:

Safari va Chrome brouzerlari uchun -webkit-

Opera brouzeri uchun -o-

Firefox brouzeri uchun -moz-

Internet Explorer(IE) brouzeri uchun esa -ms-

Css3 da eng asosiy qo'shilgan stillardan biri bu animastiyalardir, ya'ni stillar almashinish jarayoni birdaniga emas, balki sekin astalik bilan sodir bo'lishidir.

Unday bo'lsa quyidagi misolni yaxshilab tahlil qilib chiqing.

```
<STYLE TYPE="text/css">
.red {color: red; }
.blue {color:red; background-color: blue}
</STYLE>
```

Biz 2 ta stil yaratdik, "red" va "blue" deb nomladik, endi bu stillarni istalgan element uchun ishlatishimiz mumkin.

```
<P CLASS="red">Qizil shrift</P>
<P CLASS="blue">Ko'k fonda qizil shrift</P>
```

CSS stillar quyidagicha yoziladi:

```
H1{color: blue; font-size:14 px}
```

1. Selektor nomi- yozilgan stilni qaysi tegda foydalanish(misolda H1).
2. Qavs- stillar boshlanganini bildiradi.
3. Stil xususiyati(*Свойство*)- qaysi stil xususiyatidan foydalanishni o'rnatish(misolda *color,font-size*).
4. Qiymat- tanlangan stil xususiyat qiymati(misolda blue, 14 px).

Agar bir necha stil xususiyatlaridan foydalaniladigan bo'lsak, ular qo'shtirnoq(;) orqali ajratiladi,oxirida qo'shtirnoq qo'yish shart emas. Stil xususiyatlari yig'indisi shaklli qavs ichiga olinishishart({ }) va har bir stil xususiyatidan so'ng, uning qiymatini berishdan oldin ikki nuqta(:)qo'yilishi kerak.

jadvalga stil berish uchun CSSda quyidagi stil xususiyatlari mavjud:

- **border-collapse;**
- **border-spacing;**
- **border-side;**
- **empty-cells;**
- **table-layout.**

Bular asosan yacheykalar bilan ishlaydi, keling bu stil xususiyatlarini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Border-collapse — jadval yacheykalari chegaralarini chizish. Siz yacheykalarga ramka o‘rnatangiz, yacheyka birlashgan joyida ikkita chegara bo‘lib qoladi. Bu kalit so‘z orqali siz, shu ikkita ramkani bitta qilish imkoniga egasiz.

Qiymatlari:

— collapse — yacheykalar orasida bitta umumiy ramka bo‘ladi.

— separate — har bir yacheykada o‘z ramkasi bo‘ladi, chegarada esa ikkita ramka bo‘ladi.

Border-spacing — Jadvaldagi yacheykalar orasidagi masofani o‘rnatadi. Agar «**border-collapse**» o‘rnatilgan bo‘lsa, bu stil xususiyati ishlamaydi. Ikkita qiymat qabul qilishi mumkin, qiymatlar pikselda beriladi, birinchi qiymat gorizontal hol uchun, ikkinchisi vertikal. Agar, bitta qiymat bo‘lsa, ikki holat uchun bir xil bo‘ladi.

Caption-side — HTML gipermatn tilining «**Caption**» atributi orqali hosil qilingan jadval nomini(caption atributi haqida), kerakli joyga o‘rnatish.

Qiymatlari:

— *top* — jadval yuqorisiga o‘rnatish;

— *bottom* — jadvalning quyi qismiga o‘rnatish;

— *left* — jadvalning chap tomoniga o‘rnatish(manimcha faqat Firefox brauzerida ishlaydi);

— *right* — jadvalning o‘ng tomoniga o‘rnatish(manimcha faqat Firefox brauzerida ishlaydi);

Empty-cells — agar jadval yacheykasi bo‘sh bo‘lsa(hech qanday ma’lumot bo‘lmasa, probel bo‘lsa, keyingi qatorga o‘tish belgisi bo‘lsa, **visibility=hide** bo‘lsa, ya’ni ko‘rinmas bo‘lsa) bu stil xususiyati, shu yacheykani xudda ma’lumot bordagidek ko‘rinish hosil qilib beradi(ramkalarini ko‘rsatadi). Qiymatlari:

— show — ma’lumot bordigidek ramkalarini ko‘rsatib beradi.

— hide — umuman stillarini olib tashlaydi, hatto fon rangi ham bo‘lmaydi.

Bu stil xususiyatisiz misol ko‘ramiz.

```
<html>
<head>
<title>Empty</title>
<style>
table {
border:4px double blue;
}
td{
background:gray;
border:2px solid red;
}
</style>
</head>
<body>
<table>
<tr>
<td>MU</td><td>MU2012</td>
</tr>
<tr>
<td></td><td>MU2014</td>
</tr>
</table>
</body>
</html>
```

Table-layout — jadval yacheykasini uzunligini o‘rnatish, qiymatlari:


— auto — brauzer jadvalni ekranga chiqaradi, analiz qilib, keyin o‘lchamini o‘zgartirib qo‘yadi;

— fixed — aniq o‘rnatilgan o‘lcham, bu qiymatni berish uchun jadval uzunligi o‘rnatilgan bo‘lishi lozim.

2. Topshiriqni bajarish namunalari.


1-Misol:HTML kodining ichida styleyaratish sahifasi vauning natijasini ekranga chiqarish.

1. Dreamweaver dasturini ishga tushiring(Пуск→Adobe Dreamweaver)




```
<html>
<head>
<style>
body {
background-color: #d0e4fe;
}
h1 {
color: orange;
text-align: center;
}
p {
font-family: "Times New Roman";
font-size: 20px;
}
</style>
</head>
<body>
<h1>My First CSS Example</h1>
<p>This is a paragraph.</p>
</body>
```

Natija:ekranda matn holati o'zgaradi




2-Misol:CSSvaHTML ni bog'lash sahifasini keltiring.

1. Dreamweaver dasturini ishga tushiring(Пуск→Adobe Dreamweaver)



2.CSS Darslari nomli papka hosil qilib, unga 1-dars.htmlvabir.css kengaytmali fayllarni saqlaymiz.




3. Belgilangan rangdagi kod *cssvahtml* ning bog'lash kodi bo'lib bu kod *1-dars.html* faylida yoziladi.

```
<html xmlns="http://www.w3.org/1999/xhtml">
<head>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=iso-8859-1" />
<link href="bir.css" rel="stylesheet" type="text/css" />
<title>CSS darslari haqida</title>
</head>
<p>matn shrifti </p>
<body>

</body>
</html>
```

4. css da yozilgan bu kod *html* da keltirilgan **<p> matn shrifti </p>** tegi ichidagi matn shrifti va uning holatini o'zgartiradi.




```
1  /* CSS Document */
2
3  p { font-family:Arial, Helvetica, sans-serif; font-size:14px; }
4
5  }
```

3-Misol:E'lon qilingan stilni so'ralgan joyda ishlating va natijani ekranga chiqaring.

```
<html>
<head>
<style TYPE="text/css">
H1.rd {color:red;}
H1.be {color:red;background-color:blue;}
</style>
</head>
E'lon qilingan stilni kerakli joyda chaqiramiz.
<body>
<h1 class="rd">Qizil shrift</h1>
```

```
<h1 class="be">Ko'k fonda qizil shrift</h1>
</body>
</html>
```

Natija:Shrift rangi o'zgargan holat



3. Talaba bajaradigan laboratoriya topshiriq variantlari.

1-Variant

`<style></style>` ichida `<h1>` selektoridan va `{color: blue; font-size:14 px}` stil xususiyatidan foydalanib sahifa dizynini o'zgartiring va natijani ekranga chiqaring.

2-Variant

```
<style>
.klas{color:blue;font-family:verdana;}
#iden{color:red;}
</style>
```

bustil qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

3-Variant

```
<style>
<p class="klas" id="iden">test_klas</p>
<p id="iden">test_klas</p>
</style>
```

bustil qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

4-Variant

```
<STYLE TYPE="text/css">
.red {color: red; }
.blue {color:red; background-color: blue}
</STYLE>
```

bu yerdagi .red va .blue stillari qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

5-Variant

`H1{color: blue; font-size:14 px}` selektori qanday natija beradi, natijani ekranga chiqaring.

6-Variant

```
<style>
table {
border:4px double blue;
}
td{
background:gray;
border:2px solid red;
}
</style>
```

table va td stillari qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

7-Variant

```
<STYLE TYPE="text/css">
.red {color: red; }
.blue {color:red; background-color: blue}
</STYLE>
```

.red va .blue stillariga sahifaning ixtiyoriy joyidan murojatni amalga oshiring va natijani ekranga chiqaring.

8-Variant

p {font-family: "Times New Roman", serif;} stilini oddiy sahifada qo'llab natijani ekranga chiqaring.

9-Variant

Stillar haqida ma'lumot beruvchi oddiy sahifa tayyorlang vanatijani ekranga chiqaring.

10-Variant

```
td{
background:gray;
border:2px solid red;
```

} Stili haqida ma'lumot beruvchi oddiy sahifa tayyorlang vanatijani ekranga chiqaring.

11-Variant

```
table {
border:4px double blue;
```

} Stili haqida ma'lumot beruvchi oddiy sahifa tayyorlang vanatijani ekranga chiqaring.

12-Variant

<H1> da *style* atributini ishlating vanatijani ekranga chiqaring.

13-Variant

`<h2 style= "color:#FF0000;" > Bu h2 tagi edi. </h2>`
ekranda qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

14-Variant

`<style>`
`.klas{color:blue;font-family:verdana;}`
`#iden{color:red;}`
`</style>`
bustil qanday natija beradi va va natijani ekranga chiqaring.

15-Variant

`<style>`
`<p class="klas" id="iden">test_klas</p>`
`<p id="iden">test_klas</p>`
`</style>`
bustil qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

LABORATORIYA ISHI № 3

Mavzu: CSS texnologiyalari HTML xujjatga kaskadli stil jadvallarni qo'llash usullari. Stillarni (Selektorlar) e'lon qilish.

(4-soat)

Ishning maqsadi: Talabalarga CSS texnologiyalari HTML xujjatga kaskadli stil jadvallarni qo'llash usullari. Stillarni (Selektorlar) e'lon qilishni o'rgatish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Nazariy ma'lumotlar.
2. Topshiriqni bajarish namunalari.
3. Talaba bajaradigan amaliy topshiriq variantlari.

1. Nazariy ma'lumotlar.

HTML da elementlar tipini yaratishingiz mumkin, shuning uchun foydalanuvchi qurilgan instruksiyalar to'plamiga ega emas. Agar siz HTML dagi ma'lumotlarni brauzer oynasida tasvirlamoqchi bo'lsangiz, sizga brauzerda ma'lumotlarni ko'rsatish uchun mos tasvirlash instruksiyasi zarur bo'ladi. Siz buni CSS stillarning kaskadli jadvali yoki XSL stillarning kengaytirilgan tilidan foydalanib bajarishingiz mumkin.

Stillarning kaskadli jadvali – bu .css kengaytmasi bilan saqlanadigan matnli fayl. U oddiy matn redaktori yoki CSS stillarning kaskadli jadvali asosida qurilgan redaktor yordamida quriladi. Fayl ma'lumotlarni tasvirlashda sintaktik analizator uchun qoidalardan tashkil topadi. Bu qoidalar foydalanuvchiga ma'lumotlar qanday ko'rinishda aniqlanishini ko'rsatuvchi selektorlar va e'lonlardan tashkil topadi. Selektorlar ko'pincha HTML ning alohida elementlariga yuboriladi, e'lonlar esa u yoki bu element qanday ko'rinishda tasvirlanishini aniqlaydi. E'lonlar xususiyat – qiymat juftligidan iborat. Har bir xususiyat aniq qiymatni ko'rsatadi, masalan, *block*, *10pt*, *bold*.

CSS sintaksisi qoidasi quyida ko'rsatilgan:

Selektor {xususiyat:qiymat; xususiyat:qiymat;....}

Stillarning kaskadli jadvallari stillarni atributlar uchun emas, balki elementlar uchun qo'llashga ruxsat beradi. Shuning uchun har xil ko'rinishda tasvirlangan bir nechta turli elementlardan tashkil topgan HTML – hujjatni yarating. U taxminan quyidagi ko'rinishda bo'lsin va uni f.HTML nomi bilan saqlang:

Listing 6.1.

```
<?HTML version="1.0"?>
<note>
<msg>
<id>m1</id>
<from>Maftuna Abdullayeva </from>
<message>Ertalab soat 8.00 da bogchaga ayajoni bilan boradi</message>
</msg>

<msg>
<id>m2</id>
<from>Mahliyo Abdusalomova</from>
<message>Maktabga borib, albatta besh baho olib keladi</message>
</msg>
<msg>
<id>m2</id>
<from>Azizjon O'rozaliyev</from>
<message>Yaqinlariga doim yaxshi niyat tilaydi</message>
</msg>
</note>
```

Faraz qilaylik, siz HTML-hujjatni quyidagicha tasvirlamoqchisiz: *id* elementi tashkil etuvchilarini – kursiv, *from* elementi tashkil etuvchilarini yarim qalin, *message* elementi tashkil etuvchilarini ko'k. Siz buni quyidagicha bajarishingiz mumkin. Siz kerakli natijani olmoqchi bo'lsangiz xususiyat nomi hamda unga mos qiymatlarni bilishingiz zarur:

- *font-style:italic* - elementi tashkil etuvchisi kursiv tasvirlanadi;
- *font-style: bold* - elementi tashkil etuvchisi yarim qalin tasvirlanadi;
- *color: blue* – ko'k rangda tasvirlanadi.

Oddiy f.css kaskad jadvali

```
id
    { font-style:italic }
from
```

```

        { font-style: bold }
message
        { color: blue }
Hujjat CSS bilan quyidagicha bog'lanadi:
<?HTML version="1.0"?>
<?HTML-styleheet type="text/css" href="f.css"?>
<note>
<msg>
<id>m1</id>
<from>Maftuna Abdullayeva </from>
<message>Ertalab soat 8.00 da bogchaga ayajoni bilan boradi </message>
</msg>
<msg>
<id>m2</id>
<from>Mahliyo Abdusalomova</from>
<message>Maktabga borib, albatta besh baho olib keladi</message>
</msg>
<msg>
<id>m2</id>
<from>Azizjon Urozaliyev</from>
<message>Yaqinlariga doim yaxshi niyat tilaydi</message>
</msg>
</note>

```

Matn stillari xususiyatlari.

Matn stillari xususiyatlari matnning sahifadagi o'rini aniqlaydi. Masalan: elementdagi matn brauzer oynasining chap tomonida va tagiga chizilgan holatda bo'lishi uchun quyidagicha yoziladi:

```

message
        {color:blue;
text-align:left;
text-decoration:underline}

```

CSSmatn stillari xususiyatlari

Xususiyat	Ishlatilashi	Mos qiymatlar
<i>letter-spacing</i>	Matndagi harflar orasidagi masofani nazorat qiladi	normal piksellar soni
<i>line-height</i>	Matndagi harflar orasidagi masofani nazorat qiladi	normal piksellar soni
<i>text-align</i>	Matnni tekislashni nazorat qiladi	Brauzer tanlaydi left right

		center
<i>text-decoration</i>	Matn tashqi ko'rinishini nazorat qiladi	none underline overline line-through blink
<i>text-indent</i>	Matnda birinchi qatordagi chetlanishni nazorat qiladi	0 Piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>text-transform</i>	Matndagi belgilar registrini o'zgartiradi	none uppercase lowercase capitalize
<i>vertical-alignment</i>	Matnni vertikal o'zgartiradi	Baseline
<i>word-spacing</i>	So'zlar orasidagi masofani nazorat qiladi	normal piksellar soni

Shriftlar xususiyati

Shriftlar xususiyati u yoki bu elementlarni tasvirlashda ishlatiladigan simvollarning tashqi ko'rinishi ustida nazorat olib borish imkoniyatini beradi.

Masalan, element tashkil etuvchisini kursiv va simvol razmeri 250% razmerli shriftdan iboratligini ko'rsatish uchun kaskad stil quyidagicha yoziladi:

ism

```
{font-style:italic;
font-size:250%}
```

Xususiyat	Ishlatilashi	Mos qiymatlar
<i>font-family</i>	Ekranda tasvirlanadigan shrift tipini nazorat qiladi	Brouzer tanlaydi
<i>font-size</i>	Shrift razmerini nazorat qiladi	medium piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>font-style</i>	Shrift tagiga chizishni nazorat qiladi	normal italic oblique
<i>font-variant</i>	Shrift ko'rinishini nazorat qiladi	normal small-caps
<i>font-weight</i>	Shrift qalinligini nazorat qiladi	normal lighter bold

		bolder
--	--	--------

Rang va fon xususiyati

Bu xususiyatlar shrift, fon rangi va tasvirlarni qo'shish uchun ishlatiladi.

Masalan,

sana

```
{
  font-weight:bold;
  background-color: aqua}
```

CSS ning ba'zi fon va rang xususiyatlari

Xususiyat	Ishlatilashi	Mos qiymatlar
<i>background-attachment</i>	fon ko'rinishini (prokrutka) nazorat qiladi	scroll fixed
<i>background-color</i>	fon rangini nazorat qiladi	transparent
<i>background-image</i>	fon tasvirini aniqlashga ruxsat beradi	none tasvirning URL adresi
<i>background-position</i>	fonning sahifada joylashuvini nazorat qiladi	0% 0% piksellardagi qiymatlar, masalan (20,20) yoki prosenli munosabat masalan, (5%,6%)
<i>background-repeat</i>	sahifa foni sifatida ishlatiladigan uzorlarni o'zgartirishga ruxsat buradi	repeat repeat-x repeat-y no-repeat
<i>Color</i>	matn rangini nazorat qiladi	rang nomi

Ramka xususiyati

CSS yordamida ramkaga ba'zi elementlarning tashkil etuvchilarini kiritish mumkin.

Masalan,

ism

```
{font-weight :bold;
background-color:aqua;
border-style:double}
```

CSS ning ba'zi ramka xususiyatlari

Xususiyat	Ishlatilashi	Mos qiymatlar
<i>border-bottom-width</i>	Ramkaning quyi qismi uzunligini nazorat qiladi	medium thin thick

		piksellar soni
<i>border-color</i>	Ramkaning rangini nazorat qiladi	manning standart rang rang nomi
<i>border-left-width</i>	Ramkaning chap qismi uzunligini nazorat qiladi	medium thin thick piksellar soni
<i>border-right-width</i>	Ramkaning o'ng qismi uzunligini nazorat qiladi	medium thin thick piksellar soni
<i>border-style</i>	Ramkaning stilini nazorat qiladi	none solid double
<i>border-top-width</i>	Ramkaning yuqori qismi uzunligini nazorat qiladi	medium thin thick piksellar soni
<i>border-width</i>	Ramkaning uzunligini nazorat qiladi	aniqlanmagan thin medium thick piksellar soni
<i>Clear</i>	Joriy vaziyatning boshqa qismlari sonini aniqlaydi	yo'q left right
<i>Float</i>	Bo'lakning "suzuvchi" holati ehtimolligini aniqlaydi	yo'q left right
<i>Height</i>	Bo'lakning balandligini aniqlaydi	auto piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>margin-bottom</i>	Quyi maydon uzunligini aniqlaydi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>margin-left</i>	Chap tomon maydon uzunligini aniqlaydi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>margin-right</i>	O'ng tomon maydon uzunligini aniqlaydi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>margin-top</i>	Yuqori maydon uzunligini aniqlaydi	(jimlik qoidasiga ko'ra beriladi)

<i>padding-bottom</i>	Ko'rsatilgan tomonga elementlarni qo'shish uzunligini nazorat qiladi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>padding-left</i>	Ko'rsatilgan tomonga elementlarni qo'shish uzunligini nazorat qiladi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>padding-right</i>	Ko'rsatilgan tomonga elementlarni qo'shish uzunligini nazorat qiladi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>padding-top</i>	Ko'rsatilgan tomonga elementlarni qo'shish uzunligini nazorat qiladi	0 piksellar soni yoki prosent qiymati
<i>Width</i>	Bo'lak uzunligini nazorat qiladi	auto piksellar soni yoki prosent qiymati

Tasvirlash xususiyati

Bu xususiyat elementlar va ular orasidagi masofalarni tasvirlashni tavsiflash haqida broyezerga maxsus instruksiyalarni taqdim etadi.

CSS ning tasvirlash xususiyatlari

Xususiyat	Ishlatilashi	Mos qiymatlar
<i>white-space</i>	Bo'lakda probellarni ishlatishni nazorat qiladi	normal pre nowrap
<i>Display</i>	Bo'lakni tasvirlashni nazorat qiladi	block inline list-item yo'q
<i>Visibility</i>	Elementning ko'rinishchanligini nazorat qiladi	inherit visible hidden
<i>z-index</i>	Aniq sloyda elementning joylashishini nazorat qiladi	auto son

Yuqoridagi hujjatning CSS kaskadli stillar jadvalini quyidagicha ko'rinishda ko'rsatish mumkin:

id

```
{font-style: italic;
font-size:250%}
```

from

```
{font-weight: bold;
background-color:aqua;
border-style: double}
```


```
message
    {color:blue;
text-align: left;
text-decoration: underline}
msg
    {display:block}
```

2. Topshiriqni bajarish namunalari.


1-Misol: *Html* hujjatda `<p>` **Shunchaki bir**

sahifa `</p>` tegining xususiyatini *CSS* ga bog'lagan holda dizayn berib, natijani ekran gachiqaring.

1-qadam: HTML kodini *1-dars.html* fayliga kiritamiz.



2-qadam: Css kodini *1.css* fayliga kiritamiz.



Natija:Matn holatining o'zgarganini ko'ramiz.




Shrift kattaligi

Shunchaki bir sahifa

2-Misol:Sahifada jadval hosil qilish stilidan foydalanib 4x4 jadval yarating va natijani ekranga chiqaring.

```
<html>
<head>
<title>Jadval bilan ishlash</title>
<style>
table {
border:4px double blue;
}
td{
background:gray;
border:2px solid red;
}
</style>
</head>
<body>
<table>
<tr>
<td>MU</td><td>MU2017</td>
</tr>
<tr>
<td></td><td>MU2021</td>
</tr>
</table>
</body>
</html>
```


Natija:2 ta ustun va 2 ta satrni hosil qilamiz.



3-Misol: Sahifada matn holatini o'zgartiradigan stil yarating va natijani ekranga chiqaring.

```
<html>
<head>
<title>Shrift_1</title>
<style type="text/css">
.sh{
font-family: verdana, Arial, Helvetica;
}
</style>
</head>
<body>
<h3 class="sh">AkmX.uz - IT Site</h3>
</body>
</html>
```

Natija: Matn holati dizayni o'zgarganini ko'ramiz



3. Talaba bajaradigan laboratoriya topshiriq variantlari.

1-Variant

CSS hujjatni HTML hujjatiga bog'lab `<h1>` matn kattaligi `<h1>` ni o'zgartiruvchi sahifani keltiring va natijani ekranga chiqaring.

2-Variant

Oddiy f.css kaskad jadvalini CSS bilan bog'lang va natijani ekranda tasvirlang.

```
id { font-style: italic }
from
```

```
    { font-style: bold }  
message  
    { color: blue }
```

3-Variant

CSS yordamida ramkaga ba'zi elementlarning tashkil etuvchilarini kiriting va natijani ekranda tasvirlang.

ism

```
{font-weight :bold;  
background-color:aqua;  
border-style:double}
```

4-Variant

CSS ning ba'zi fon xususiyatlari dan foydalanib sahifa dizaynini o'zgartiring va natijani ekranga chiqaring.

5-Variant

CSS ning ba'zirang xususiyatlari dan foydalanib sahifa dizaynini o'zgartiring va natijani ekranga chiqaring.

6-Variant

font-family-ekranda tasvirlanadigan shrift tipini o'zagrtirgan holda natijani ekranga chiqaring.

7-Variant

CSS yordamida ramkaga ba'zi elementlarning tashkil etuvchilarini kiriting va natijani ekranda tasvirlang.

ism

```
{font-weight :bold;  
background-color:aqua;  
border-style:double}
```

8-Variant

p {font-family: "Times New Roman", serif;} stilini oddiy sahifada qo'llab natijani ekranga chiqaring.

9-Variant

Stillar haqida ma'lumot beruvchi oddiy sahifa tayyorlang vanatijani ekranga chiqaring.

10-Variant

font-size -ekranda tasvirlanadigan shrift kattaligini o'zagrtirgan holda natijani ekranga chiqaring.

11-Variant

font-weight-ekranda tasvirlanadigan shrift qalinligini o'zgartirgan holda natijani ekranga chiqaring.

12-Variant

```
<style>  
<p class="klas" id="iden">test_klas</p>  
<p id="iden">test_klas</p>  
</style>
```

bustil qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

13-Variant

```
<h2 style="color:#FF0000;"> Bu h2 tagi edi. </h2>
```

ekranda qanday natija beradi va natijani ekranga chiqaring.

14-Variant

CSS hujjatni *HTML* hujjatiga bog'lab `<p> matnni format qilish <p>`ni o'zgartiruvchi sahifani keltiring va natijani ekranga chiqaring.

15-Variant

CSS hujjatni *HTML* hujjatiga bog'lab `<p> matnni rangini<p>` ning ichidagi matn rangini o'zgartiruvchi sahifani keltiring va natijani ekranga chiqaring.

LABORATORIYA ISHI № 4

Mavzu: Selektorlarning sinfi, identifikator, psevdosinf va psevdoelement ko'rinishlari. Rang, shrift va ro'yxatlar uchun aniqlangan xossalarni qo'llash.

(4-soat)

Ishning maqsadi: Talabalarga Selektorlarning sinfi, identifikator, psevdosinf va psevdoelement ko'rinishlari. Rang, shrift va ro'yxatlar uchun aniqlangan xossalarni o'rgatish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Nazariy ma'lumotlar.
2. Topshiriqni bajarish namunalari.
3. Talaba bajaradigan amaliy topshiriq variantlari.

1. Nazariy ma'lumotlar.

CSS orqali web sahifa fonini o'zgartirish va rang berish ishlarni HTML orqali ham qilish mumkin, lekin bu darajadagi fonlarni chiqarish qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun web sahifa yaratishda HTML gipermatn tili va CSS stil xususiyatlari aralashtirib ishlatiladi, shu tariqa birini kamchiligini biri yopadi. CSS da asosiy fon va rang uchun javob beradigan stil xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- **color;**
- **background-color;**
- **background-image;**
- **background-repeat;**
- **background-attachment;**
- **background-position;**
- **background.**

Bu stil xususiyatlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Color - u yoki bu elementga rang berish uchun ishlatiladi, misol uchun, hamma paragraf teglari qizil rangda, barcha h1 teglar qora rangda bo'lish kerak bo'lsa, quyidagicha stil beriladi.

Fon, rang va fon tasviri bilan ishlash.

Darsimiz, CSS orqali veb sahifa fonini o'zgartirish va rang berishga bag'ishlanadi. Bu ishlarni HTML orqali ham qilish mumkin, lekin bu darajadagi fonlarni chiqarish qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun veb sahifa yaratishda HTML gipermatn tili va CSS stil xususiyatlari aralashtirib ishlatiladi, shu tariqa birini kamchiligini biri yopadi. CSS da asosiy fon va rang uchun javob beradigan stil xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- **color;**
- **background-color;**
- **background-image;**
- **background-repeat;**
- **background-attachment;**
- **background-position;**
- **background.**

Bu stil xususiyatlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Color — u yoki bu elementga rang berish uchun ishlatiladi, misol uchun, hamma paragraf teglari qizil rangda, barcha h1 teglar qora rangda bo'lish kerak bo'lsa, quyidagicha stil beriladi.

```
<html>
<head>
<title>Rang_1</title>
<style type="text/css">
p{color:red}
h1{color:black}
</style>
</head>
<body>
<h1>Qora</h1>
<p>Qizil</p>
</body>
</html>
```

Qayerda bu teglar ishlatilsa, shu tegga mos holda stillar ham ishlaydi, natijani ko'ramiz:

Background-color — biror element yoki butun veb sahifa foniga rang berish. HTML dagi «**bgcolor**»dan farqli ravishda, bu stil xususiyati istalgan element foniga rang berish mumkin: havolalarga, paragraflarga, jadvallarga,

Misol ko‘ramiz, butun sahifa foniga va barcha **H3** teglari foniga rang beramiz.

```
<html>
<head>
<title>Rang_2</title>
<style type="text/css">
body{background-color:gray}
h3{color:orange}
</style>
</head>
<body>
<h3>Fongini rangini qara, daxshatu a!</h3>
</body>
</html>
```

Background-image — sahifa foni sifatida biror rasmni qo‘yish, nafaqat sahifa boshqa elementlarga ham qo‘yish mumkin, faqat yaxshi chiqmasligi ehtimoli katta.

Misol ko‘ramiz,

```
<html>
<head>
<title>Rang_3</title>
<style type="text/css">
body{
background-image: url(bum.jpg);
}
</style>
</head>
<body>
</body>
</html>
```

E’tibor bergan bo‘lsangiz, rasmni ko‘rsatish HTMLga nisbatan boshqacharoq. «**url**» kalit so‘zi yozilib, so‘ng rasm adresi berilmoqda, bu holda rasm sahifa fayli saqlangan papka bilan bir joyda joylashgan, agar boshqa joyda bo‘lsa, (**image/um.jpg**) ko‘rinishida(rasmning to‘liq adresi) berish kerak.

Background-repeat — qaytarilishni amalga oshirish. Agar yuqoridagi misolga e’tibor bergan bo‘lsangiz, kichik rasmlar yuqori chap burchak bo‘lab qaytarilib

takrorlanmoqda va shu tariqa butun veb sahifa foni rasmga to'ldirilmoqda. **Background-repeat** shu qaytarilishni boshqara oladi.

Bu stil xususiyatining quyidagi qiymatlari mavjud:

Background-repeat: repeat-x ; — gorizontaal bo'yicha qaytarilish.

Background-repeat: repeat-y ; — vertikal bo'yicha qaytarilish.

Background-repeat: repeat ; — vertikal va gorizontaal bo'yicha qaytarilish.

Background-repeat: no-repeat ; — qaytarilishni amalga oshmaydi.

Bunday xususiyatlar HTML gipermatn tilida mavjud emas. Keling misol ko'ramiz,

```
BODY {  
  background-image : url(bum.jpg) ;  
  background-repeat: repeat-x;  
}
```


Fon sifatida tanlangan rasm, faqat gorizontaal bo'yicha takrorlanadi.

2. Topshiriqni bajarish namunalari.

1-Misol: Shrift rangi va uning o'lchamini o'zgartirish stilini yarating va natijani ekranga chiqaring.

```
<html>  
<head>  
<title>Rang_1</title>  
<style type="text/css">  
p{color:red}  
h1{color:black}  
</style>  
</head>  
<body>  
<h1>Qora</h1>  
<p>Qizil</p>  
</body>  
</html>
```


Natija:Matnning rangi va o'lchami o'zgarish holati hosil bo'ldi.



2-Misol: Fon va matn rangini o'zgartirish stilini yarating va natijani ekranga chiqaring.

```
<html>
<head>
<title>Rang_2</title>
<style type="text/css">
body{background-color:gray}
h3{color:orange}
</style>
</head>
<body>
<h3>Fongini rangini qora, daxshatu a!</h3>
</body>
</html>
```

Natija: Fon va matn rangi o'zgargan holati hosil bo'ldi.



3. Talaba bajaradigan laboratoriya topshiriq variantlari.

1-Variant

Orqa fonga rasm joylashtirish stilini yarating va natijani ekranga chiqaring.

2-Variant

BODY{

```
background-image : url(rasm.jpg) ;  
background-repeat: repeat-x;  
}
```

bu stil qanday natija berishini tekshiring va natijani ekranga chiqaring.

3-Variant

```
BODY{  
background-image : url(bum.png) ;  
background-repeat: no-repeat;  
background-attachment: scroll ;  
}
```

